

**“TASDIQLAYMAN”  
“NKMK” AJ**

**Bosh direktorining xodimlar va  
maburiy masalalar bo'yicha  
o'rinbosari**



**Q.X. Taparov**

**“NKMK” AJda Korrupsiya holatlari haqida xabar berish mexanizmi, xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish, ularning ta'qibga olinmasligi kafolatining mavjudligi yuzasidan**

**MA'LUMOT**

*2024-yil 31-dekabr holatiga*

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining (keying o'rinlarda- Jamiyat) 2023-yil 22-fevraldagi 93-sonli buyrug'i birinchi ilovasi bilan “Jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish Tartibi” qabul qilingan.

Mazkur Tartib Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash va tegishli ta'sir choralari ko'rishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek Tartib O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi va Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid va amaldagi ichki idoraviy hujjatlari talablari buzilishi, manfaatlar to'qnashuvi sodir etilganligi, odob-axloq qoidalarini buzilishi holatlari bo'yicha xabar bergan jamiyat xodimlarini rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

Mazkur tartib qoidalariga asosan 2024-yil davomida Jamiyat xodimlari rag'batlantirilmagan.

Bundan tashqari, Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yil 7-iyundagi 4-son majlis bayonining 24-ilovasiga asosan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalariga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar, ochiqlik va monopoliya to'g'risidagi qonun buzilish holatlari yuzasidan kelib tushgan xabarlarni qabul qilish hamda ko'rib chiqish Reglamenti tasdiqlangan.

*Ma'lumot uchun: Jamiyatga 2024-yil davomida korrupsiyaga oid jami 57 ta murojaatlar kelib tushgan. Shundan, 36 tasi yozma shaklda, 18 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali, 3 tasi Jamiyat elektron manzili orqali kelib tushgan.*

*Mazkur murojaatlar asosida 6 ta xizmat tekshiruvlari va 51 ta o'rganishlar o'tkazilib, tegishli tartibda murojaat mualliflariga javob xatlari yuborilgan.*

*Shuning bilan birga, 8 nafar fuqarolar tomonidan yuborilgan 8 ta murojaatlar ko'rib chiqish davomida aniqlangan holatlar (yoki murojaatlarning bir qismi) vakolat doirasida ko'rib chiqish uchun tegishliligi bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan.*

**Komplayens xizmati boshlig'i**



**R.F. Avezov**